

## TOG'AY MUROD QISSASIDA SHEVAGA XOS SO'ZLAR (“YULDUZLAR MANGU YONADI” ASARI MISOLIDA)

**Telmanova Aziza Qahramon qizi**

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti filologiya fakulteti 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Tog'ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” asarida keltirilgan shevaga xos so'zlar tahlil etilgan. Shuningdek, qissa matnidagi dialektizmlar, barqaror birikmalar ishtirok etgan gaplar ajratib olinib, ularning shevaga xos xususiyatlari tavsiflangan. Shevaga xos so'zlar adabiy tildagi so'zlarga qiyoslanib, tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *sheva, qissa, matn, dialektizm, qahramon nutqi, qipchoq lahjasi.*

Ma'lumki, bir voha yoki viloyat shevalarini tasnif qilish oldingi davrlarda, ya'ni XX asrning 50-90-yillarida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda uchraydi. Masalan, F.Abdullayev, A.Shermatov, B.Jo'rayev, A.Aliyev, Saidmuso Rahimov o'zbek shevalarini guruhlab o'rganishgan. F.Abdullayev Xorazm viloyati shevalarini qipchoq va o'g'uz lahjalariga bo'lib o'rgangan. A.Shermatov, B.Jo'rayev Qashqadaryo viloyati o'zbek shevalarini: 1) Yuqori Qashqadaryo shevalari; 2) Quyi Qashqadaryo shevalari nomlari bilan guruhlarga ajratib o'rganishgan. A.Aliyev Namangan viloyati o'zbek shevalarini guruhlab, ilmiy hamda amaliy asoslarda tadqiq etgan. Bu sohaga oid ba'zi bir ilmiy manbalarda oraliq shevalar haqida fikr yuritilgan. O'zbek tilining oraliq shevalarini Qashqadaryo shevalari misolida T.Qudratov tadqiq etgan. Saidmuso Rahimov esa Surxondaryo viloyatidagi o'zbek shevalarini ikkita guruhga bo'lib o'rgangan: 1.J-lovchi shevalar (qipchoq lahjasiga xos shevalar). 2.Y-lovchi shevalar (qorluq lahjasiga xos shevalar). Ularda V.V.Reshetov tomonidan talqin etilgan qipchoq va qarluq lahjalariga oid xususiyatlar uchraydi. B.To'ychiboyev va B.Hasanovlar qipchoq lahjasini sharqiy, g'arbiy hamda Farg'ona guruh qipchoq shevalari deb uchga bo'lishgan.

Badiiy adabiyot tili xalq (millat) tili boyliklarining qayta ishlangan ko'rinishidir. Shu jarayonda badiiy so'z ustalarining voqea yoki qahramon sarguzashtlari o'tadigan shevaga murojaat qilishlari e'tirof etilgan. Adabiyotda mahalliy kolorit degan tushuncha bor. Bu esa adiblarga mahalliy kechinmalarni ifodalashda sheva xususiyatlaridan keng foydalanishga imkoniyat yaratadi. Badiiy adabiyotda adib dialektizmlardan ikki o'rinda foydalanadi, ya'ni dialogik nutqda qahramonning muayyan sheva vakili ekanligini ko'rsatish, mahalliy koloritni berish maqsadida hamda adabiy tilda sinonimi bo'lmagan so'zlarni majburan qo'llaydi. Hatto butun boshli badiiy asarda mahalliy sharoit, mahalliy mentalitetni, ruhiyatni ifodalashda to'lig'icha sheva xususiyatlaridan foydalangan holda tasvirlaydi. O'z asarlarida shevaga xos xususiyatlarni singdirib, xalqona obrazlar yaratgan yozuvchilar qatorida Tog'ay Murodni ham keltirish mumkin.

Said Ahmad degan edilar: “Tog'ay Murod adabiyotga tutab emas, yonib kirdi. Tog'ay Murod qissalari –haqiqatan sof milliy o'zbek qissalaridir. Bu qissalarda tasvirlangan odamlarga boshqa xalq libosini kiydirdsangiz ham o'zbekligi bilinib turadi. Ularning xulq-

atvori ham boshqa xalqqa aslo o'xshamaydi". Qissada Surxon polvonlarining halolliklari, mard, tantiliklari mohirlik bilan tasvirlangan. Yozuvchi shevaga xos so'zlardan qahramonlar nutqining individualligini ta'minlash maqsadida foydalangan. Ya'ni qissada qipchoq shevasiga xos xususiyatlar ko'p uchraydi. Asar matnida qishloq shevasi ajralib turadi. Ko'plab hududlarda, xususan Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo shevalariga xos unsurlarni ham asar tarkibida uchratamiz. Badiiy asarlarda shevaga xos so'zlar qahramonlarning xarakter xususiyati tasviriyligini va hayotiyiligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Yozuvchi asarlarida sheva elementlarini qo'llash orqali badiiy jozibadorlikka erishadi. Shu bilan birga shevaga xos so'zlardan samarali foydalanish yozuvchining haqqoniy mahoratini ham belgilab beradi.

Tog'ay Murod o'z asarlarida shevaga xos xususiyatlarni singdirib, xalqchil obrazlar yarata olgan. "Yulduzlar mangu yonadi" yozuvchining dastlabki asarlaridan biridir. Birinchi qadamlardayoq bunday natijaga erishish tajribali yozuvchi ekanligidan dalolat beradi.

"Toboq-toboq palov suzildi" [10] Bu gapda toboq-toboq birligi dialektal mazmun kasb etgan. Qishloq hududlarida [v] tovushi [b] tovushi tarzda ifoda etilgani uchun shevaga xos so'zlar vujudga keladi. Toboq tovoq leksemasining shevaga xos ko'rinishi. Quyidagi gapda ham yuqoridagi holat kuzatiladi: "Shukur qoboq-tumshuq qildi" [18] "Bova, Ermat polvonga meni chiqaring, Shukur bizning hamsoyamiz" [19] Bu gapda "bova", "hamsoyamiz" kabi so'zlar shevaga xos so'z bo'lib, so'zning birinchi bo'g'inidagi u unlisi o unlisiga almashgan, "bova" shevadagi shakl, bu so'zning adabiy tildagi ko'rinishi "buva". Bobo so'zi bova tarzda PastDarg'om tumanining ba'zi qishloqlarida ham ishlatiladi.

Gapdagi hamsoya dialektal so'zining ma'nosi quyidagicha: "Hamsoya – soya ostida birga: qo'shni. Yonma-yon hovlida yashovchi; qo'shni". Qashqadaryo hududida shunday talaffuz etilsa, Samarqand ko'plab hududlarida esa hamsiya shaklida ifoda etiladi. "Eb-ey, eb-ey! – dedi. – Manovi tarafdin aylaninglar! Kulmang, xaloyiq, polvonlar g'ayratiga chiday olmay, shoshib qoldi, ha! Polvon shuytib-shuytib polvon bo'ladi-da! " [17] Bu gapdagi manovi olmoshi mana bu olmoshining, shuytib-shuytib olmoshi shunday qilib olmoshli birikmaning qisqartirilgan va shevaga xos varianti hisoblanadi. Mana bu olmoshi yaqin masofadagi narsani ajratib ko'rsatadi. Uning vaqt masofa jihatdan so'zlovchiga yana ham yaqinligini ta'kidlaydi. "Manovi" so'zida spirantizatsiya (ayrim portlovchi undoshlarning ikki unli orasida sirg'aluvchi undoshga o'tishi) hodisasi ro'y bergan. (b va v undoshlari) Shunday ko'rsatish olmoshi xuddi aytilganga, ko'zga tutilganga yoki ko'z o'ngidagiga o'xshash, shunga o'xshash, shu singari kabi ma'nolarni ifodalaydi. "Yo'q, Ermat polvon bilan men olishaman Shukur xolamning uli! " [19] Bu gapda uli so'zida tovush almashinishi, tovush tushishi kabi dialektal hodisalar kuzatilgan. "O'g'li" so'zi haqiqatan qishloq hududlarida "uli" tarzda ishlatiladi, jumladan, PastDarg'om tumani Qozoq qishlog'ida ham shunday talaffuz etiladi. "Bo'ri yelkasiga sochiq tashladi. Obtovada odamlar qo'liga suv quydi" [28] Bu gapda tahlil qilinayotgan so'z obtovadir. Obtova shevaga xos so'z, uning adabiy tildagi varianti obdasta, ya'ni ro'zg'or buyumi; yuz-qo'l yuvish uchun ishlatiladigan uzun va ingichka jo'mrakli, qorni keng, bo'g'zi tor idish. Samarqand hududining ayrim tumanlarida bu so'z "aptuva" deb ishlatiladi. Frazelologizmlar badiiy adabiyotda obrazli va ta'sirchan vosita sifatida qo'laniladi. Badiiy nutqqa o'z-gacha joziba, ko'tarinki ruh, yengillik baxsh etadi. Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" qissasida ham frazelologizmlar uchraydi. "He, kallang

qursin, sendaychikin Sana polvonning! – dedi ichida. – Bu polvon emas, govkalla! Sana govkalla!” Bu gapda kishi tana a’zolari nomlari va ularning faoliyatini ifodalovchi so’zlar ishtirokidagi iboralarga misollar uchraydi. Ilmiy adabiyotlarda bunday iboralar somatik iboralar deb yuritiladi. Yuqoridagi misolda “kallang qursin”, “govkalla” kabi birliklar dialektal mazmun ifodalaydi. Kallang qursin salbiy ma’noga ega bo’lib, nafrat, qarg’ishni ifodalaydi. Govkalla so’zida gov sigir, katta, ulkan ma’nolarini ifodalaydi.

“Yana – tag’in Nasim polvonning jirillashi kimning gazagiga dori deng! ” [75] Bu gapda “gazagiga dori” mavhun tushunchalarni ifodalovchi so’zlar ishtirokidagi iboralar sirasiga kiradi. Bu ibora Tog’ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romani tarkibida ham uchraydi.

Turli hududlarda bo’lgan har xil shevalarga xos so’zlarni o’rganish shu xalqning tarixi uchun ham, til tarixi uchun ham juda muhim bo’lgan ishonchli ma’lumotlarni asoslab beradi. Yozuvchi shevaga xos so’zlarga takror-takror murojaat qilar ekan, qishloq odamlari nutqi bu jarayonda muhim ekanligini qayd etadi.

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash lozimki, dialektlar adabiy tilning boyishi uchun tabiiy manbalardan biri bo’lib qoladi. Dialektizmlarning adabiy tilga singib ketish jarayoni dastlab qiyin kechadi, lekin badiiy adabiyotning ta’sirchan kuchi orqali bir asarda qo’llangan dialektizm keyingi asarlarga o’tadi va shu tariqa umumxalq mulkiga aylanadi va adabiy tilda o’zlashib ketishi mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Tog’ay Murod. Yulduzlar mangu yonadi. – Toshkent: Nurafshon-Kitob-Ta’minot. 2022.
2. Enazarov T.J. Karimjonova V.A. va boshqalar. O’zbek dialektologiyasi. T., Universitet, 2012
3. Rajabov N. O’zbek shevashunosligi. T., O’qituvchi, 1996.
4. Ashirboyev S. O’zbek dialektologiyasi. T., 2013.
5. Suvonova R. Qipchoq shevalariga xos so’zlar lug’ati. SamDU nashri, 2019.